



O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI PAREMIYALARNING AYRIM MANBALARI XUSUSIDA

Aytniyazova Nargiza Farxatovna,

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

nargiza.farxatovna@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243853>

***Annotatsiya.** Lingvokulturologiya sohasi doirasida paremiologik birliklar paremiologiya tarmog‘ida qaralib, ularda xalq o‘zining bor tajribasini, aql-zakovatini uyg‘unlashtirgan holda namoyon etadi. Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq xalq maqollarining ayrim manbalari xususida fikr yuritilgan. Ularni tahlil qilish madaniyatlar qiyosini o‘rganish imkonini beradi.*

***Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, paremiologiya, paremiologik birliklar, maqol, madaniyat, milliylik, lingvokulturologiya, manba.*

Til milliy madaniyatning oynasi, uni saqlovchi xazina hamdir. Har bir xalq yashayotgan joyining tabiati, uning iqtisodiy tizimi, og‘zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san‘ati, fani, urf-odatini o‘zida aks ettirib, to‘plab, avloddan avlodga yetkazib berish tilning milliy-madaniy mundarijasidir. Bu mundarija tilning harakatdagi birliklarida juda ham aniq namoyon bo‘ladi.

Xalq tafakkuri durdonasi hisoblanmish paremiologik birliklar nafaqat xalq hayoti, qarashini ifodalashi bilan qadrlil, balki kundalik turmushimizda nutqimizni boyituvchi vositalardan biri hamdir.

Ta’kidlash kerakki, paremiyalar [maqol, matal, hikmatli so‘zlar] qadimgi davrlardan paydo bo‘lgan. Ularning ildizlari asrlar qa’riga borib taqaladi. Paremiyalarning katta qismi hali yozuv paydo bo‘lmagan davrlardan-oq vujudga kelgan. Shu sababli paremiyalar xalqona kelib chiqish tarixiga ega. Paremiyalarning dastlabki manbai xalqning jamoaviy ongida yuzaga kelganligini qayd qilish o‘rinlidir.

An’anaviy ilmiy yondashuvlarda paremiyalar, asosan, xalq og‘zaki ijodining o‘rganish doirasida qolib keldi. Unga folklor janri sifatida yondashildi. Garchi tilshunoslikda paremiyalar barqaror birliklar sifatida lisoniy hodisa, deb e’tirof etilsada, uning lisoniy mohiyatiga yetarlicha baho berilgan, deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Fanimizda lisoniy birlik sifatida uning ayrim sintaktik xususiyatlarigina tahlilga tortilgan, xolos [7:50]. Shu nuqtayi nazardan, paremiyalarni, ham xalq og‘zaki ijodi namunalari darajasida, ham lingvokulturologiyaning birligi sifatida tadqiq etish uchun alohida soha vujudga keldiki, u paremiologiya tarmog‘i deb ataladi. Paremiologiya [yunon tilidan olingan bo‘lib, paroimia – “maqol, hikmatli so‘z, matal”, logos – “fan” degan ma’noni bildiradi] [10]. Demak, paremiologiya maqol, matal, aforizmlarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, uning o‘rganish obyekti paremiyalar hisoblanadi. Ayniqsa, lingvokulturologiyaning o‘rganish predmetlari orasida paremiya [maqol]lar alohida ajralib turadi. Zero, ularda xalq o‘zining boy tajribasini aql-zakovati bilan uyg‘unlashtirgan holda namoyon etadi. Paremiyalar insonning ongiga, xotirasiga o‘rnashadi. Shu asosda inson o‘zida, shuningdek, atrofida

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



kechayotgan har bir hodisani baholay oladi. Ana shunga ko‘ra paremiyalar borliqni kuzatish va undagi voqeliklarga munosabat bildirishning milliy-madaniy mezoni sifatida yashaydi.

Hikmatli so‘zlar, maqollar – hech bir podsho e‘lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir [8:5].

“Maqollar – xalq og‘zaki ijodi merosining eng keng tarqalgan, eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o‘ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchli, metaforik tarzda yashiringan. Maqollar, ularni yaratgan xalq qancha umr ko‘rsa, ming yillar bo‘yi tirik jon kabi saqlanadi. Maqollarni yuzaga chiqargan xalq tili ham o‘zining obrazli qudrati bilan ming yillar bo‘yi saqlanib kelaveradi” [5:86].

Yana shuni unutmash kerakki, maqollar, ularni yaratgan xalqning donoligini o‘zida mujassam etadi. Xalq donishmandligi – yirik bir fan. Unga tajribali kishilar ega bo‘ladilar. Davrining va undan keyingi asrlarning buyuk donishmandi, eramizdan oldingi IV asrning yirik faylasufi Aristotel shunday degan edi: “Donishmandlik ba‘zi sabablar va ibtidolar haqidagi fandır... Donishmandlikni, adolat nuqtayi nazaridan ilohiy demoq mumkin va shu bois donishmandlik, birinchi navbatda, tangriga o‘xshaydi...”[2:8].

Maqol tugallangan mazmun va shakl sifatida shakllanishida til egasi bo‘lgan oddiy xalq tomonidan qabul qilinishi kerak. Assimilyatsiya jarayonida ko‘plab maqollarning kelib chiqish manbalari batamom unutiladi. Shunga qaramasdan, ularning kelib chiqishini o‘rgangan tadqiqotlar tahlili natijasida, maqollarning ayrim manbalarini keltirish mumkin.

Xalq maqollarining mazmun ko‘lami inson hayotining turli sohalarini qamraydi. Inson hayotidagi voqea-hodisalarning cheki yo‘q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o‘lchab bo‘lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e‘tiborga arzimaydigandek ko‘rinuvchi lavhadan tortib chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o‘z aksini topgan. Agar “*Uyga palos yarashur, xotinga libos*” maqoli maishiy hayotga taalluqli bo‘lsa, “*Yozda miyang qaynasa, qishda qozoning qaynar*” maqolida vaqtni bekor o‘tkazmaslik, aql bilan ish ko‘rish insonga hayot imkonini yaratishi qayd etiladi, “*Vaqting ketdi – baxting ketdi*” maqolida esa falsafiy mazmun ifodalangan bo‘lib, inson taqdirida vaqt tushunchasining qanchalar muhim ekanligi ta’kidlangan.

Maqollar odamzodning kundalik hayotida boshidan o‘tkazgan tajribasi natijasida paydo bo‘ladi. Ular odamlarning oddiy kuzatishlarini, his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Ko‘plab maqollar dehqonlar, ovchilar, chorvadorlar, ishchilar, oshpazlar tomonidan yaratilib, ularning kundalik kuzatishlari natijasida paydo bo‘lgan. Masalan:

“*Shamol kemadagilarning xohishiga qarab esmas*” maqoli dengizchilar;

“*Etning yaxshisi – qazi, Itning yaxshisi – tozi*”;



“Iyttiñ bári tazi bolmas, Ettiñ bári qazi bolmas” [4:69] maqoli ovchilar;

“Yer – xazina, suv – gavhar” maqoli dehqonlar nutqida birinchi marta qo‘llanilgan, bo‘lishi mumkin.

Ushbu turg‘un birikmalar bir vaqtlar ma‘lum bir guruh tomonidan ishlatilgan, ammo keyinchalik katta omma tomonidan qabul qilinib, til tizimiga kirgan va turli vaziyatlarda ishlatilgan.

Yuqorida aytib o‘tilgan maqollar manbalari ovchilik, dehqonchilik sohalari bo‘ladi. Ana shular qatoriga baliqchilik sohasini qo‘shadigan bo‘lsak, qoraqalpoq xalq maqollaridan farqli ravishda o‘zbek xalq maqollari tarkibida bu sohaga oid maqollar kam uchraydi. Sababi tarixdan ma‘lumki, qoraqalpoqlar Orol dengizi bo‘ylarida istiqomat qilishgan hamda asosiy mehnat faoliyati baliqchilik bo‘lgan, milliy taomlari ham, asosan, baliq go‘shidan tayyorlangan. Masalan: *“Tutup alsañ sazandı, Toltirasañ qazandı”*, *“Baliğı bolmağan kóli qurısın, Kiyigi bolmağan shóli qurısın”*, *“Jarlınuñ teñi jarma, baliqshınıñ teñi qarma”*, *“Súmbile tússe suw suwir, Kóldegi baliq qurır”*, *“Baliq basınan shiriydi”*, *“Baliq jegen toq bolar, Hál-dármanı joq bolar”* [3:51] kabi maqollar bunga misol bo‘la oladi.

Ba‘zi maqollar urf-odatlar bilan bog‘liq. Masalan:

Oltin olma, duo ol, Duo oltin emasmi;

Niyating – yo‘ldoshing;

O‘lim borning molini sochar, Yo‘qning sirini ochar.

Yuqoridagi maqollarda xalqning ko‘p asrlik falsafiy mushohadasini ko‘rish mumkin. Unda ayollarning ham jamiyatdagi o‘rni erkaklarnikidan kam emasligi, ayollarning mehnatsevarligi aytiladi. Oilada onaning dunyoqarashi farzand tarbiyasida juda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan jamiyatning ilg‘or fikrli insonlari ayolga, uning salomatligiga, bilim olishiga ijobiy munosabatda bo‘lishgan.

Ko‘plab maqollar, kundalik mehnat sohaslarida vujudga kelgan.

O‘zbek tilida: *Azob ko‘rmay rohat yo‘q;*

Qo‘llashib ko‘targan yuk yengil;

Bol bor yerda ari bor;

Non yeyishni istasang, o‘tin tashishdan erinma.

Qoraqalpoq tilida:

Miynetin kim kórse, Ráhátin de sol kóredi [4:54].

Mehnatga taalluqli maqollarning ko‘pchiligi boshqa tillarda ham mavjud.

Masalan:

ingliz tilida: *Strike while the iron is hot;*

rus tilida: *Куйте железо пока горячо;*

o‘zbek tilida: *Temirni qizig‘ida bos;*

qoraqalpoq tilida: *Temirdi qizg‘anda soq.*

Barcha tillarda *“qizib turgan temir”* obrazi ishlatilgan. Ushbu maqollar har bir narsani vaqtda kechikmasdan qilish kerak, degan ma‘noni ifoda etadi, shu bilan birga temirchilik sohasi barcha lingvomadaniyatlarda tarixiy katta o‘rin egallaganidan dalolat qiladi.



O‘zbek lingvomadaniyatida ko‘plab adabiy asarlardan kirib kelgan maqollar mavjud. Ayniqsa, buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkiri Alisher Navoiyning asarlaridan kirib kelgan hikmatli so‘zlarning o‘rni salmoqlidir. Alisher Navoiy ijodi abadiy barhayotligining siri shundaki, u azaliy va abadiy mavzularni yuksak mahorat bilan qalamga olgan: muhabbat, vafo, do‘stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, mardlik, saxovat, adolat, oliyanoblik, yaxshilik kabi insoniy fazilatlarni ulug‘lagan. Yomonlik, zulm, zo‘rluk, nohaqlik, e‘tiqodsizlik, bevafoqlik, dilozorlik, hasad, riyo, kibr singari illatlarni keskin tanqid qilgan. Alisher Navoiy ko‘p qirrali teran fikrlarni lo‘nda va aniq shaklda ifodalaydi, o‘z fikrining ta‘sirchanligini oshirish uchun hayotiy o‘xshatishlar topadi. Xalq hayotining eng chuqur qatlamlarigacha yaxshi bilgan, donishmand shoirning ko‘rgan-kechirganlarining xulosasi sifatidagi teran mazmunli lo‘nda hikmatlari xalq orasiga shunchalik singib ketganki, insonlar bu so‘z va iboralarni Navoiy yaratganligidan bexabar holda ularni og‘zaki va yozma nutqda keng qo‘llashadi.

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur;

Izzat tilasang kam de, sihat tilasang kam ye.

Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt.

Tilga ixtiyorsiz, elga e‘tiborsiz [1:87].

Ba‘zi holatlarda Alisher Navoiy yaratgan hikmatlar shaklini o‘zgartirib tilda maqol sifatida keng qo‘llanishining guvohi bo‘lishimiz mumkin:

Birovga choh qazisang, o‘zing tushasan [o‘zbek maqoli] [6:53];

Har kishi kim birovga qozgay choh,

Tushkay ul chohga o‘zi nogoh [A. Navoiy hikmatlaridan] [1:102].

Qoraqalpoq lingvomadaniyatida ham ko‘plab adabiy asarlardan kirib kelgan maqollar mavjud. Bunga bir qator qoraqalpoq adabiyotining yorqin namoyondalaridan Berdaq shoir hamda Seyfulg‘abit Majitov, Abbaz Dabilov kabi ijodkorlarning didaktik fikrlarini misol qilib keltirish mumkin.

Berdag shoir ijodidan:

Jaqsı adam sóz mánısın añlaydı,

Jaman adam pasıq sózdı tñlaydı.

Qolındı úzbe el-elattan,

Qashıq júrme jamanattan.

Molla bolsañ ilımdı tut, Jalğız óziñ bolmaysañ jurt.

Jamanlarğa sırındı aytpa,

Kelgen jerde sózden qaytpa [3:230].

Seyfulg‘abit Majitov ijodidan:

Batır bolar balanı, Sheshesinen tanırsañ,

Adam bolar jıgıttıñ, Múshesinen tanırsañ.

Xızmet etseñ xalqıña, İnandır dáslep óziñdı,

Bul isıñ kelse ornına, Onnan soñ basla sóziñdı.

Bolayın deseñ maqtawlı, Xosh qılıq penen ádetlen,

Dáwletıñ taymas ómirde, Ádep penen zıynetlen.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



*Erliktin bolar en zori, Ata-ananin kewlin tap,
Tarbiyalap osirgen, Enbegin jurme zoyalap [3:232].*

Abbaz Dabilov ijodidan:

*Is buyrsa xosh jaqpaqan, Ozin sayada saqlagan,
Kisini otin jaqpaqan, As nannin qadirin bilmes.
Ma'layina tuk pitpegen, Shulliklep agash tikpegen,
Qoli menen kogertpegen, Miywenin qadirin bilmes [3:240].*

Milliy dunyo tasvirining verballashuvida paremiologik birliklar, ya'ni maqollar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki maqollar milliy xarakterning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlarida mujassam etadilar. Maqollar til sohiblarining mavjud bilimi, shaxsning amaliy tajribasi, o'sha tilda gapiruvchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Har bir xalq, har bir millat o'z mentalitetini qaysidir ma'noda maqollar va iboralarda ifodalaydi, ular millatning tarixiy taraqqiyoti, urf-odat, an'analari, dunyoqarashi, ma'naviy va madaniy kamolot darajasini aks ettiradigan manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent, 2015.
2. Aristotel, Metafizika, Toshkent, 1999. – B. 8.
3. Qaraqalpaq folklori – naqil-maqollar. Toshkent, 2019.
4. Qaraqalpaq folklori. Nukus, 1978. 4-tom.
5. O'zbek xalq maqol va matallari, Toshkent, 1985. – B. 86.
6. O'zbek xalq maqollari. Toshkent, 2013. – B. 53.
7. Бакиров П.У. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках [на материале русского, узбекского и казахского языков]: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Ташкент, 2007. –С. 50.
8. Məmmədov, X., & Kadirova, X. (2024). X(İKS)-FEMİK XARAKTERLİ ÖZBƏK VƏ AZƏRBAYCAN ATALAR SÖZLƏRİNİN TİPOLOJİ XÜSUSİYYƏTLƏRİ. O'ZBEK TILINING XORIIDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI, 1(01), 39–44. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/95>
9. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати. Т., 1990. 5-б.